



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 15-oktabr

538-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 11-oktyabrda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 4-oktyabrdagi PQ – 347-son qarori ijrosi haqida”gi 473-6-0-Q/24-sonli qarori haqida

Inson resurslarini rivojlantirish, mehnat bozorini isloh qilish, bandlikning zamonaviy shakllarini tatbiq etish orqali kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha sohada ko‘rsatilayotgan davlat xizmatlari sifatini oshirish, xalqaro andozalar asosida munosib mehnat munosabatlarini keng joriy qilish hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 4-oktyabrdagi PQ – 347-son hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 11-oktyabrdagi 473-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 11-oktyabrdagi 473-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va amalda ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-oktyabrdagi PQ – 347-son qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kambag‘allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to‘g‘risida” 2024-yil 23-sentyabrdagi PF – 143-son Farmoniga muvofiq “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi qabul qilinganligi hamda ushbu dastur ijrosini tashkil qilish vazifasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligiga (keyingi o‘rinlarda – Vazirlik) yuklatilganligi;

“Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi ijrosini tashkil qilishning yaxlit tizimini joriy etishni nazarda tutgan holda quyidagilar Vazirlik faoliyatining asosiy yo‘nalishlari etib belgilanganligi:

mehnat bozorini, band va ishsiz aholini tarkibiy tahlil qilish, ishsizlarni manzilli aniqlash va ularning hisobini yuritish – mehnat bozorini tahlil qilish va ishsizlarning hisobini manzilli (nomma-nom) yuritish, iqtisodiyotning rivojlanib kelayotgan tarmoq va sohalarida mehnat resurslariga bo‘lgan talabni prognoz qilish, mehnat bozoridagi tarkibiy muammolarni aniqlash va nomutanosibliklarning oldini olish, Xalqaro mehnat tashkiloti bilan faol hamkorlikda ishlash;

aholi bandligini ta‘minlash dasturlarini shakllantirish, bo‘sh ish o‘rinlari hisobini yuritish, ishsizlarni ishga joylashtirish – har yil uchun hududlar, tarmoq va sohalar kesimida aholi bandligini ta‘minlash dasturini ishlab chiqish va uning amalga oshirilishini muvofiqlashtirish, mavjud bo‘sh ish o‘rinlari hisobini yuritish va monitoring qilish, ishsiz fuqarolarni ishga joylashtirishni tashkil etish va ish beruvchilar bilan bog‘lash;

kambag‘allikni qisqartirish – kambag‘allik dinamikasi va tarkibini tahlil qilish, oilalarni kambag‘allikdan chiqarish individual rejalarining ishlab chiqilishini tashkil etish va ijrosini muvofiqlashtirish, aholini kambag‘allikdan chiqarish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarni joylarga chiqqan holda o‘rganish hamda natijasi bo‘yicha “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish bo‘yicha respublika komissiyasiga (keyingi o‘rinlarda – Respublika komissiyasi) har oyda ma‘lumot kiritib borish;

hokim yordamchilari faoliyatini muvofiqlashtirish mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha tuman (shahar) hokimining

yordamchisi (keyingi o‘rinlarda – hokim yordamchisi) faoliyatini uslubiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, istiqbolli loyihalar bilan ishlash ko‘nikmasi va malakasini oshirib borishni doimiy tahlil qilish, eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish va baholash, faoliyatida aniqlangan tizimli muammolarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

kasbiy standartlarni ishlab chiqish, kasb-hunar va xorijiy tillarga o‘qitish, malakani baholash – xalqaro ekspertlarni jalb qilgan holda xorijda tan olinadigan kasbiy standartlarni ishlab chiqish, talab yuqori bo‘lgan kasb va xorijiy tillarga o‘qitish bo‘yicha davlat buyurtmasini shakllantirish, standartlar asosida malakani baholash xizmatlari bozorini tartibga solish, sohaga xususiy sektorni keng jalb qilish;

munosib mehnat sharoitlarini yaratish, mehnat me‘yorlariga rioya etilishini o‘rganish, mehnat huquqini ta‘minlash hamda mehnatni muhofaza qilish – munosib mehnat tamoyillari va xalqaro standartlarni joriy etish, mehnat munosabatlarini tartibga solishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish, mehnat huquqlarini himoya qilish,

shuningdek, mehnat xavfsizligi va gigiyenasi hamda munosib mehnat sharoitlarini ta‘minlash;

Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi tugatilganligi hamda uning shtat birliklari, vazifalari, funksiyalari va mol-mulki Vazirlik tasarrufiga o‘tkazilganligi;

shunday tartib o‘rnatilganki, unga ko‘ra:

a) Vazirlik hududiy bo‘linmalarining kambag‘allikni qisqartirish va kasb-hunarga o‘qitish yo‘nalishlari bo‘yicha faoliyati loyihaviy yondashuv tamoyili asosida tashkil etilishi;

b) kambag‘allik darajasi yuqori bo‘lgan tuman (shahar) yoki mahalla bo‘yicha aniq chora-tadbirlardan iborat loyihaviy boshqaruv tizimi joriy etilishi, bunda eng og‘ir ahvoldagi mahallalar infratuzilmasini yaxshilash, shu jumladan, tomorqalarni sug‘orish suvi, mahallalarni elektr energiyasi va internet bilan uzluksiz ta‘minlash mablag‘lari Vazirlikning aniq loyihalari bo‘yicha ajratilishi;

c) Vazirlikning hududiy bo‘linmalariga quyidagi vakolatlar berilishi:

tuman (shahar) hokimligi, mahalla fuqarolar yig‘ini bilan mahallalarda kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan uch tomonlama shartnoma tuzish;

uch tomonlama shartnoma shartlari bajarilishini nazorat qilish va uning shartlari bajarilmagan taqdirda, infratuzilmani rivojlantirishga yo‘naltirilgan mablag‘larning to‘xtatish;

d) mahallalarda infratuzilmani yaxshilash loyihalari va davlat tomonidan tadbirkorlikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltiriladigan mablag‘lar Vazirlik taklifiga binoan Respublika komissiyasi tomonidan taqsimlanishi;

aholi bandligini ta‘minlash va daromadlarini oshirish orqali kambag‘allik darajasini qisqartirish bo‘yicha hududlar kesimidagi maqsadli ko‘rsatkichlar 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

belgilanishicha, Vazirlikda yuqori natijaga erishib kelayotgan, ijobiy tajribaga ega 50 nafar hokim yordamchisidan iborat “Loyiha menejerlari” guruhi tashkil etilishi, bunda:

“Loyiha menejerlari” guruhi tarkibidagi har bir hokim yordamchisi samaradorlik ko‘rsatkichlari past bo‘lgan tuman (shahar)larga biriktirilishi va ular olti oygacha mazkur tuman (shahar)lardagi mahallalarga xizmat safariga yuborilishi;

xizmat safari davomida “Loyiha menejerlari” guruhidagi hokim yordamchilari, ish haqi va boshqa ijtimoiy to‘lovlar saqlab qolingan holda, lavozim maoshining 50 foizi miqdorida qo‘shimcha moddiy rag‘batlantirilishi;

“Loyiha menejerlari” guruhi tarkibidagi hokim yordamchilarining xizmat safari va ularni moddiy rag‘batlantirish bilan bog‘liq xarajatlar Hokim yordamchilari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplanishi;

hokim yordamchilarini qonunchilikda ularga yuklatilgan vazifalardan tashqari boshqa ishlarni bajarishga jalb etish taqiqlanganligi qayd etilganligi;

ishsiz va kambag‘al aholini ichki va tashqi mehnat bozori talablariga mos bo‘lgan ishchi kasblarga o‘qitish tizimini tashkil etish maqsadida:

a) Vazirlik huzuridagi “Ishga marhamat” monomarkazlari va kasb-hunarga o‘qitish markazlari negizida kasbiy ko‘nikmalar markazlari tashkil etilganligi;

b) Vazirlik kasbiy ko‘nikmalar markazlarida:

2025-yil 1-yanvardan ish beruvchilar talabiga moslashuvchan o‘qitish muddati va vaqtini nazarda tutuvchi tezkor kurslar yo‘lga qo‘yilishini;

2025-yil 1-martdan boshlab amaliy kasbiy ko‘nikmalarni bevosita ish joyida shakllantirish imkonini beruvchi yangi tajribaning joriy etilishini;

2025-yil 1-maydan boshlab xalqaro tan olingan ta‘lim dasturlarining joriy etilishini;

2026-yil 1-yanvarga qadar kasbiy ko'nikmalar markazlarini xalqaro baholash tashkilotlarining akkreditatsiyasidan o'tkazish orqali ularning bitiruvchilariga xorijda tan olinadigan sertifikatlar (malaka pasportlari) berilishini ta'minlanishi;

2026-yil 1-iyulga qadar malakali xorijiy tashkilotni jalb qilgan holda xalqaro standartlar bo'yicha kasbiy malakani baholovchi markazni tashkil qilinishi va ushbu markazda xorijiy davlatlarda tan olinadigan malaka sertifikati berishni yo'lga qo'yilishi;

v) Vazirlikka quyidagi huquqlar berilganligi:

kasbiy ko'nikmalar markazlarining bino-inshootlari yoki ularning bir qismini jihozlari bilan birga ularda kasb-hunar va xorijiy tillarga o'qitish kurslarini tashkil qilish uchun xorijiy ish beruvchilar va ta'lim tashkilotlariga to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha tekin foydalanishga yoki uzoq muddatli ijaraga berish;

kasbiy ko'nikmalar markazlarini sohada yetarli tajribaga ega mahalliy va xorijiy tashkilotlarga to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar asosida ishonchli boshqaruvga berish;

xalqaro tan olingan kasb standartlarini ishlab chiqish uchun yuqori malakali xorijiy ekspertlarni shartnoma asosida jalb etish;

quyidagilar:

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi "Ishga marhamat" monomarkazlari va kasb-hunarga o'qitish markazlari negizida tashkil etiladigan kasbiy ko'nikmalar markazlari ro'yxati 2-ilovaga muvofiq;

Kasbiy ko'nikmalar markazlarining asosiy faoliyat yo'nalishlari 3-ilovaga muvofiq;

tugatilayotgan hamda bino va inshootlari Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga o'tkazilayotgan kasb-hunarga o'qitish markazlari ro'yxati 4-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Vazirlik hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 1-yanvardan Toshkent shahri va Samarqand viloyatida, 2025-yil 1-sentabrdan respublikaning boshqa hududlarida ishsiz va ish qidirayotgan shaxslarni buyurtma asosida davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari hamda ish beruvchilarni jalb qilgan holda o'qitish to'g'risidagi taklifi ma'qullanganligi;

belgilanishicha, ishsiz va ish qidirayotgan shaxslarni buyurtma asosida o'qitish doirasida:

Vazirlik tomonidan talab yuqori bo'lgan kasb va xorijiy tillar ro'yxati hamda ushbu jarayonga jalb etiladigan xususiy o'quv markazlarining reestri shakllantirilishi;

kasblar va xorijiy tillarga o'qitish uchun Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi hisobidan ajratiladigan grantlar qiymati Vazirlik tomonidan belgilanishi;

ishsiz va ish qidirayotgan shaxslarga ro'yxatda belgilangan kasb va xorijiy tillarni hamda ularni o'qitadigan ta'lim tashkilotlari yoki ish beruvchilarni mustaqil tanlash huquqi berilishi;

ta'lim tashkilotlari va ish beruvchilarga grant mablag'larining 50 foizgacha miqdori o'qish boshlanishidan oldin, qolgan qismi o'qish yakuni bo'yicha ishsiz aholi tomonidan yakuniy imtihon muvaffaqiyatli topshirilgan taqdirda to'lanishi;

belgilab qo'yilganki:

a) 2024-yil 1-noyabrdan boshlab Davlat mehnat inspeksiyasi va uning hududiy bo'linmalari tomonidan mehnat huquqlari va mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi yuzasidan tekshiruvlar tekshiruv boshlangan paytdan boshlab Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakilni xabardor qilgan holda o'tkazilishi;

b) 2025-yil 1-martdan boshlab:

Davlat mehnat inspeksiyasi va uning hududiy bo'linmalari mansabdor shaxslariga mehnat huquqlari va mehnatni muhofaza qilish, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish, aholi bandligi to'g'risidagi qonunchilik talablarini bajarmaganligi uchun kameral nazorat o'tkazish vakolati berilishi;

mehnat huquqlari va mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilikni buzgan, Davlat mehnat inspeksiyasi va uning hududiy bo'linmalari mansabdor shaxslarining qonuniy faoliyatiga aralashgan, to'sqinlik qilgan yoki ta'sir o'tkazgan shaxslarga nisbatan jarima qo'llash tartibi joriy etilishi;

Davlat mehnat inspeksiyasi va uning hududiy bo'linmalariga "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimi ma'lumotlaridan foydalangan holda Davlat budjeti mablag'lari hisobidan qurilayotgan, ta'mirlanayotgan yoki rekonstruksiya qilinayotgan

obyektlardagi ishchilar sonining loyiha-smeta hujjatlari hamda pudrat ishlari hajmiga muvofiqligi yuzasidan nazorat tadbirlarini o'tkazishga ruxsat etilishi;

c) huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlariga Davlat mehnat inspeksiyasi va uning hududiy bo'linmalarining xodimlarini bir oyda jami 10 ish kunidan ortiq muddatga tekshiruvlar o'tkazishga jalb qilish taqiqlanishi;

belgilanishicha, ichki mehnat bozorini himoya qilish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida mehnat qilayotgan xorijiy fuqarolar hisobini yuritish maqsadida yuridik shaxslarga va xorijiy fuqarolarga O'zbekiston Respublikasi hududida mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi tasdiqnomalarni berish Vazirlik tomonidan amalga oshirilishi;

Vazirlik hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining Mehnat bozori tadqiqotlari institutini Kambag'allik va mehnat bozori tadqiqotlari instituti etib qayta tashkil etish to'g'risidagi taklifi ma'qullanganligi;

belgilanishicha, Kambag'allik va mehnat bozori tadqiqotlari instituti zimmasiga respublikada demografik o'zgarishlar, mehnat bozorida vujudga kelayotgan tendensiyalar, ixtisosliklar bo'yicha mehnat resurslariga nisbatan talab va ehtiyojlar hamda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish vazifalari yuklatilishi;

quyidagilar:

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining tashkiliy tuzilmasi 5-ilovaga muvofiq;

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik sohasida islohotlarni chuqurlashtirish va tizim faoliyatini transformatsiya qilish bo'yicha "yo'l xaritasi" 6-ilovaga muvofiq;

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi markaziy apparati va uning hududiy bo'linmalari xodimlarini rag'batlantirish shartlari 7-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari huzurida davlat muassasalari shaklida tashkil etilgan Yangi ish o'rinlari tashkil etishni rag'batlantirish hududiy jamg'armalari yuridik shaxs maqomi tugatilgan holda Vazirlikka o'tkazilganligi;

belgilanishicha:

hududiy jamg'armalarning ijro etuvchi direksiyalari tugatilishi hamda hududiy jamg'armalar faoliyatini tashkil etish va yuritish vazifalari Qoraqalpog'iston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahri Kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmalari (keyingi o'rinlarda – hududiy boshqarmalar) tomonidan amalga oshirilishi;

hududiy jamg'armalar mablag'lari amaldagi yo'nalishlarga qo'shimcha ravishda "Loyiha menejerlari" guruhi tomonidan yuqori samara bergan ijobiy tajribalarni boshqa hududlarda joriy etish bilan bog'liq loyihalarni moliyalashtirish, yetakchi tadbirkorlar va usta dehqonlarni jalb etishga sarflanishi;

belgilanishicha, xodimlarning mehnat huquqlarini kafolatlash hamda mehnat muhofazasini ta'minlash maqsadida:

2025-yil 1-yanvardan boshlab xodimlarning mehnat huquqlarini himoya qilish va mehnatni muhofaza qilishni kuchaytirish, ish beruvchilar bilan xodimlar o'rtasidagi muvozanatli mehnat munosabatlarini yanada qo'llab-quvvatlash hamda mehnat sohasidagi nizolarni hal etishni mediatsiya usulida videokonferensaloqa shaklida amalga oshirish tizimi joriy etilishi;

2025-yil 1-martdan boshlab mulkchilik shaklidan qati nazar barcha tashkilotlarda mehnat huquqlari va mehnat muhofazasi ta'minlanganlik holati onlayn reyting asosida baholanishi;

2026-yil 1-yanvarga qadar ish joylaridagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklarining oldini olish hamda xavfsiz mehnat sharoitlarini ta'minlash maqsadida mehnat xavfsizligi va gigiyenasi standartlari ishlab chiqilishi;

shunday tartib o'rnatilganki, unga muvofiq davlat organlari va tashkilotlari hamda davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo'lgan xo'jalik jamiyatlarining inson resurslari bilan ishlashga mas'ul tarkibiy tuzilmalarining rahbar va xodimlari har uch yilda kamida bir marta mehnat munosabatlarini tashkil etish bo'yicha Vazirlik huzuridagi malaka oshirish markazida shartnoma asosida malakasini oshirib borishi;

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vaziriga quyidagi vakolatlar berilganligi: vazir maslahatchilari, hududiy boshqarmalar, Vazirlik huzuridagi tashkilotlar,

hududiy inspeksiya rahbari va o'rinbosarlarini mustaqil tarzda lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod etishi, bunda hududiy boshqarmalar rahbarlarini lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod etish tegishli Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari bilan kelishilishi;

Vazirlik markaziy apparati, hududiy boshqarmalar va Vazirlik tizimidagi tashkilotlarning rahbarlari va xodimlari uchun faoliyat samaradorligi ko'rsatkichlarini (KRI) belgilash hamda nazoratini olib borishi;

Vazirlikka tegishli jamg'armalar hisobidan va o'z hisobidan moliyalashtiriladigan Vazirlik tizimidagi tashkilotlar shtat birliklarini, rahbar va xodimlari mehnatiga haq to'lash hamda moddiy rag'batlantirish shartlarini va miqdorlarini mustaqil belgilashi e'tiborga olinsin.

3. Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi (Z.Axmadjonov) kambag'allikni qisqartirish va ehtiyojmand oilalarni qo'llab-quvvatlash borasida hokim yordamchilarining malaka talablari muvofiqligini o'rganish va tuman hokimligiga takliflar kiritish hamda ularni malakasini doimiy ravishda oshirib borsin.

4. Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi (Z.Axmadjonov) zamonaviy kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lgan malakali o'rta bo'g'in ishchilarni tayyorlash borasida:

Kasbiy ko'nikmalar markazlarida mehnat bozoriga kirib kelgan yangi va zamonaviy kasblar, jumladan, quyosh panellarini o'rnatish, elektromobillarni ta'mirlash, liftyor, interer dizayneri va boshqa kasblar bo'yicha o'quv kurslarini tashkil etish;

innovatsion yondashuv asosida xomashyo xarajatlarini tejavchi virtual trenajyor- simulyatorlar, o'quv va ishlab chiqarishga mo'ljallangan zamonaviy jihozlarni xarid qilish;

elektron va video darsliklar bazasini kengaytirish va uni amaliyotga joriy etish choralari ko'rsin.

5. Mehnat huquqlarini ta'minlash borasida Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi (Z.Axmadjonov), Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi (A.Xudoyberdiyev), Kasaba uyushmasi muvofiqlashtiruvchi kengashi raisi (A.Yakubov), manfaatdor idora va tashkilotlar, Xalqaro ijtimoiy ta'minot assotsiatsiyasining (ISSA) konsepsiyasini joriy etishga asoslangan 2025-2027-yillarda O'zbekiston Respublikasida "Qurilish maydonlarida jarohatlanishga barham berish" dasturini ishlab chiqishda asoslangan takliflarni tuman hokimligiga kiritin.

Bunda qurilish tashkilotlarida xavfsizlik monitoringini o'tkazish, xodimlarning sog'lig'i va hayotiga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni aniqlash hamda ularning oldini olish borasidagi profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimning moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari – iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i A.Abdusalomov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov